



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti

TARIX FAKULTETI



TARIX  
va  
JAMIYAT

JOURNAL  
2023



**№5**

HISTORY AND SOCIETY  
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
ЖУРНАЛ



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

---

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

---

**Bosh muharrir:** Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

**Mas'ul kotib:** Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:** Axmurodov D.Q

---

## DINIY-AXLOQIY MEROSIMIZDA MA'NAVIY-TARBIYA VIY EHTIYOJNING NAMOYON BO'LISHI

G'oziyev Z. JDPU o'qituvchisi

Mavlonov O. JDPU 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muqaddas diniy-axloqiy merosimiz xazinasida ma'naviy-tarbiyaviy ehtiyojning namoyon bo'lishi bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Millat, ehtiyoj, ta'lim, tarbiya, meros, din, axloq, ma'naviyat, alloma, ilm, imon, e'tiqod, o'zlikni anglash, taraqqiyot, yuksalish, ijtimoiy, madaniy, aqidaparstlik, mutaassiblik.

## ПРОЯВЛЕНИЕ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ПОТРЕБНОСТИ В НАШЕМ РЕЛИГИОЗНО-НРАВСТВЕННОМ НАСЛЕДИИ

Гозиев З. Преподаватель ЖДПУ

Тожиев Дж. студентка 4 ступени ЖДПУ

**Абстрактный:** В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с проявлением духовно-просветительских потребностей в сокровищнице нашего священного религиозно-нравственного наследия.

**Ключевые слова:** Нация, потребность, образование, воспитание, наследие, религия, нравственность, духовность, наука, наука, вера, вера, самосознание, развитие, прогресс, социальный, культурный, фанатизм, фанатизм.

## MANIFESTATION OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL NEED IN OUR RELIGIOUS AND MORAL HERITAGE

Goziev Z. Teacher of JDPU

Tojiev J. 4th stage student of JDPU

**Abstract:** This article examines issues related to the manifestation of spiritual and educational needs in the treasury of our sacred religious and moral heritage.

**Key words:** Nation, need, education, upbringing, heritage, religion, morals, spirituality, science, science, faith, faith, self-awareness, development, progress, social, cultural, bigotry, bigotry.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug' allomalar, aziz-avliyolar vatani bo'lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga

muhabbat va sadoqat tuygʻusini yanada kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir”[1].

Faqat mustaqillik tufayligina jamiyatda adolat, xaqiqat tiklandi, xalqning bebaho madaniy merosi yana oʻziga qaytdi.

Shaklan milliy, mazmunan umuminsoniy qadriyatlarni oʻzida mujassamlashtirgan xalq anʼanalari ajdodlarimizning diniy va ahloqiy merosidagi boy manbalar jahon madaniyati xazinasiga qoʻshilgan buyuk hissa boʻlib hisoblanadi. Uning koʻp tomonlari mahalliy qobigʻdan chiqib, xalqaro ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbek xalqining milliy, diniy anʼanalari, axloqiy merosi avloddan-avlodga, bobodan-otaga, otadan-bolaga oʻtib kelmoqda va yoshlarni tarbiyalashda katta rol oʻynamoqda. Demak, zamonaviy taʼlim-tarbiya tizimi va milliy, diniy hamda ahloqiy meros asosidagi gʻoyaviy uygʻunlik ajdodlar merosini oʻrganishning amaliy ahamiyatini asoslab beradi.

Koʻp yillar davomida kishilarimizning ongi shuurini singdirilgan din haqidagi notoʻgʻri tasavvurlar sobiq ittifoq mafkurasining tazyiqi ostida hosil qilingan sunʼiy koʻnikma va malakalar diniy axloqiy qadriyatlarni oʻrganishga boʻlgan tabiiy ehtiyojni qondirishga izn bermaslik, daxriylikka majburan odatlantirishga olib keldi.

Odatlanish esa inson tabiatiga juda kuchli taʼsir koʻrsatadi A. Navoiy yozganidek:

Tabiatga har neki odat boʻlur,

Chu eskirdi, odat tabiat boʻlur![6:62]

Shuning uchun Gʻarb va Sharq eng oqil, fozil odamlar dinga, imonga qarshi emas, aqidaparastlik va mutaassiblikka qarshi kurashgan edilar. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkin: dunyoviylik ayrim aqidaparast kimsalarning daʼvolaricha aslo dahriylik emas.

Bu xususda Yurtboshimiz I.A.Karimov oʻz mulohazalarini quyidagicha bayon qilgan edi: “Agar mendan, nega milliy qadriyatlarimiz shuncha zamonlar osha bezavol yashab kelayapti, deb javob bergan boʻlur edim. Shu zaminda oʻtgan necha-necha avodlar diniy eʼtiqotni yurakda saqlasa, islom falsafasini rivojlantirib kelmasa, biz bebaho va betakror maʼnaviy-ruhiy merosdan mahrum boʻlib qolardik. Binobarin, islom dini hayotimizning tub zamirida chuqur singib ketgan. Bu – inkor etib boʻlmaydigan xakikat. Shunday ekan, milliy istiqloq maykurasida muqaddas dinimizning mohiyati, uning insonparvarlik gʻoyalari, dinga sogʻlom munosabat masalalari ham oʻzining oqilona ifodasini topishi zarur”[3:25].

Bir soʻz bilan aytganda, diniy axloqiy merosga ixlosmandlik unga vorislik hissini chuqur anglash, barcha sohalarda “etti oʻlchab bir kesish”, oqilona faoliyat yuritish bizning kundalik ehtiyojimizga aylanmogʻi kerak.

Aql bilan ish koʻrmaslik esa millatning tarixiy asrlar davomida yaratgan maʼnaviy boyliklarining taqdirini noxush holatga olib keladi va qadrlansizlantiradi. Bu esa diniy-axloqiy tamoyillardan biri boʻlgan insonparvarlikning yemirilishiga imkoniyat yaratadi. Oqibat – natijada jamiyatda ijtimoiy manfaatlar bilan milliy qadriyatsizlik oʻrtasida chuqur jarlik qujudga keladi. Qadriyatlar yemirilishining ijtimoiy tus olishi shu millatning faqat maʼnaviy qashshoqlanishiga olib kelmasdan, balki moddiy qashshoqlashishiga olib kelmasdan, balki, moddiy qashshoqlashishiga ham olib keladi, jamiyatda ishonch susayadi, ishonchning susayishi esa eʼtiqotni yoʻqotadi. Natijada jamiyatda insonparvarlik va mehr-shavqat tushunchalari insoniy hissiyotdan uzoqlashtiriladi[4:65].

Bu xususda bizning xalqimiz va millatimiz tarixida achchiq saboqlar borligi xech kimga sir emas.

Demak, ajdodlarimizning madaniy, dini hamda ilmiy merosini oʻrganish jamiyat taraqqiyoti uchun zarur boʻlgan dolzarb masalalardan biridir. Holbuki, maʼlum salibiy hodisalar, sobiq tuzum mafkurasi tazyiqida qadrsizlantirilib yuborilgan insonparvarlik tamoyillari, diniy axloqiy mezonlari, adolatsizlarcha va takabburlarcha xalqimizning nazaridan chetda qoldirilgan ilmiy-maʼnaviy merosi jamiyatimiz kishilarida insoniy fazilatlarini takomillashuviga ijobiy taʼsir oʻtkaza olmay qolgan edi, toʻgʻrirogʻi uni hayotbaxsh, taʼsirchan kuchi yoʻqqa chiqarilgan edi.

Ayniqsa bu holat inson faoliyati, maqsad ham intilishlariga ruh bagʻishlaydigan imon-eʼtiqotga salbiy taʼsir oʻtkazadi. Chunki, diniy ahloqiy tarbiya omillari turmushimizdan majburiy tarzda sitib chiqarilgan edi. Adabiyotshunos olim Gʻaybulloh As-Salomning chiroyli tashbehiga koʻra, “xudoni, dinni inkor etish nuqtasidan boshlab, yalpi axloqsizlik yemirilishi, yaxshiyliklarga yoʻl ochildi. Ilm-fanni inkor etish chizigʻidan boshlab, soʻqir qiroatxonlik, ongsizlik, bidʼat, jaholat va mutassiblik avj oladi”[8:140-141].

Xuddi shuning uchun ham ajdodlar diniy axloqiy merosini chuqur oʻrganish talab etilmoqdaki, u bizni gumrohlikdan, xabarsizlikdan va jaholatdan saqlaydi, maʼnaviy omillarga gʻoyaviy jarayonlarga anglab olingan oqilona ehtiyojning yuzaga kelishiga olib keladi, chunki, ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosda barcha davlatlar uchun kerak boʻladigan ajoyib ilgʻor fikrlar borki, bular bugungi taraqqiyot uchun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgan emas [5:3].

Qolaversa diniy-axloqiy jarayonlarga, umuman jamiyat milliy gʻoyasining tayanch nuqtasi boʻlgan maʼnaviyatga ehtiyoj yangilanib bormasa, jamiyat

tanazzulga yuz tutadi. Boshqacha aytganda, jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi asosiy kuch – iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy taraqqiyot zaruriyatlari bilan belgilangan, ma’naviyat bilan mushtaraklangan ehtiyojdir. Ehtiyoj bo‘lmagan joyda hech qanday taraqqiyot va yuksalish bo‘lmaydi. Ehtiyojning o‘zi ham ma’naviyatlilik darajasi bilan belgilanadi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi rivojlanishning oxirgi nuqtasi bo‘la olmaganidek, ma’naviy kamolotning har bir bosqichi konkret davrlarning o‘ziga xos ehtiyojlari va mkoniyatlari bilan belgilanadi[7:139]. Ma’naviyat borasidagi bir ehtiyojning ro‘yobga chiqishi o‘z navbatida yangi, yanada kengroq ehtiyojlar shakllanishi uchun zamin bo‘ladi. Binobarin, ma’naviyatning yangi cho‘qqilariga yetish ehtiyoji shaxs va jamiyat kamolotining hal qiluvchi omili sifatida inson faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy kamolotga ehtiyoj biror chegaraga borib tugullanmaydi ham. Birinchi yurtboshimiz Islom Karimov ko‘rsatib o‘tganidk, “Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog‘ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar, qiyinchiliklar bilan ma’naviyat chashmasini izlaydi”[2:71]. Ma’naviyat chashmasini doimo izlash – inson kamolotini belgilovchi ehtiyoj, hayotning maqsad va mazmunidir. Bu chashma ko‘zi esa ajdodlarimiz diniy, axloqiy hamda madaniy merosini muntazam o‘rganib borish asosidagina ochiladi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. “Ma’rifat”, 2017 yil, 15-fevral.
2. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyoti yo‘li. -T.: “O‘zbekiston”, 1992.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.: “O‘zbekiston”, 2000.
4. Boyto‘rayev T.D. Insonparvarlik va ma’naviy qadriyat haqida ba’zi mulohazalar. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar sohalarining muhim masalalari. Oliy o‘quv yurtlari ilmiy ishlar to‘plami.-T.: 2001.
5. Mahmudov R. Degonimni ulusqa marg‘ub et... -T.: “O‘zbekiston”, 1992.
6. Navoiy A. Hikmatlar.-T: “Adabiyot va san’at”, 1968.
7. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. -T.: “Universitet”, 1998.
8. G‘aybulloh As-Salom. Tolibnoma. –T.: “Sharq”, 1997.